

INTERFAOL VA DIDAKTIK O'YINLARNING BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI O'RNI

Sultonova Durdona Doniyorbek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich 25_09-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Qo'ychiyeva Zarnigor Abdmannob qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası

katta o'qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada didaktik o'yinlarning boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlar o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamdaguruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik metod sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, ta'lim usullari, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, qiziqishni uyg'otish, kompetensiya, ta'lim samaradorligi

Аннотация: В данной статье освещается роль и значение дидактических игры в начальном образовании. Дидактические игры, используемые в образовательном процессе, интерпретируются как эффективный педагогический метод, служащий повышению интереса учащихся к освоению предметов, закреплению знаний, развитию навыков творческого и логического мышления, а также формированию навыков работы в группе.

Ключевые слова: дидактические игры, методы обучения, творческое мышление, логическое мышление, совместная работа, пробуждение интереса, компетенция, эффективность обучения.

Abstract: This article highlights the role and importance of didactic games in primary education. Didactic games used in the educational process are interpreted as an effective pedagogical method that serves to increase students' interest in mastering subjects, strengthen knowledge, develop creative and logical thinking skills, and form group work skills.

Keywords: didactic games, teaching methods, creative thinking, logical thinking, collaborative work, arousing interest, competence, educational effectiveness.

XXI asr sharoitida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil

6-noyabrdagi PQ-4512-son qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim sifatini oshirish konsepsiyasi"da o'qituvchilar faoliyatiga interfaol metodlarni, xususan, o'yin asosida o'qitish yondashuvlarini joriy etish zarurligi alohida ta'kidlangan. Bu qaror ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda mustahkam metodik asos yaratib berdi. Zamonaviy pedagogika faqat nazariy bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmay, o'quvchilarda amaliy kompetensiyalar, muloqot, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni maqsad qiladi. Bugungi avlod axborotni tez qabul qilishi, yangi sharoitga moslasha olishi bilan ajralib turadi. Shu sababli an'anaviy metodlardan tashqari didaktik o'yin elementlari asosida tashkil etilgan faol darslar ta'lim samaradorligini oshiradi.

Didaktik o'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross didaktik o'yinlarni tizimli o'rganishga harakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller didaktik o'yinlarni «qoniqish hosil qiluvchi» faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, didaktik o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin didaktik o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatidir[2].

Didaktik o'yin - bu ma'lum maqsadga qaratilgan, qoidalar bilan chegaralangan, o'quv jarayonida bilim olishni o'yin shaklida tashkil etishga imkon beruvchi metod hisoblanadi. U nafaqat o'quvchilarning bilimini oshirishga, balki ularda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yinning hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yindagina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turidan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratadi. O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi o'quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamma vaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi[5].

Tadqiqotchi N.X. Tadjibayeva o'yinlar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchi "nafaqat dars mazmunini o'zlashtiradi, balki o'zini ifoda etadi, fikrini asoslaydi va ijtimoiylashadi" deb ta'kidlaydi. Bu o'yinlarning faqat ko'ngilochar emas, balki chuqur didaktik mohiyatga egaligini ko'rsatadi[4].

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida

emotsional-hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. Shuning uchun ham aynan boshlang'ich ta'limda yoki xususan, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi fani doirasida tashkil qilinadigan dars jarayonlarida didaktik o'yinlardan foydalanishga ahamiyat berish kerak. Negaki, bu bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchida darsdan zerikib qolish, undan qochish xususiyatlarini uzoqlatishga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik o'yin tabiiy faoliyat turi bo'lgani sababli, darsda qo'llaniladigan o'yin metodlari o'quvchilarda:

- darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi;

- nutq va tafakkurni faollashtiradi;
- ijodiy qarashni kuchaytiradi;
- mustaqil o'rganishga rag'bat uyg'otadi.

O'yinlar grammatika, imlo, lug'at boyligi, matn yaratish, obrazli tafakkurni shakllantirish jarayonida samarali vositadir. Xalq og'zaki ijodi elementlari, maqollar, iboralar bilan boyitilgan o'yinlar esa o'quvchilarda metaforik fikrlashni rivojlantiradi[3].

Didaktik o'yinlar orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarni:

- o'qishga jalb qiladi;
- mustaqil fikrlashga undaydi;
- tezlashgan axborot oqimiga mos ravishda faol harakatga keltiradi;
- o'z fikrini asoslab berish madaniyatini shakllantiradi.

Didaktik o'yinlarning turlari. Didaktik o'yinlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ulardan foydalanish darsning maqsadi, mazmuni va bosqichiga bog'liq. Asosiy turlaridan ayrimlarini qo'rib chiqamiz: "So'zdan rasm – rasmdan matn" didaktik o'yini. Bu o'yinda o'quvchi rasmlar asosida so'z yasaydi, bo'g'inlarni birlashtiradi, so'ng matn tuzadi. Masalan: bosh + osmon + yetdi — "boshi osmonga yetdi". Bu o'yin orqali: izchil fikrlashni rivojlantiradi; obrazli nutqni shakllantiradi.

"Kamalak jilosi" interfaol o'yini. Rangli sharlar ichiga joylashtirilgan savollar o'quvchiga tashlanadi va u tezkor javob qaytarishi kerak. Bu o'yin orqali o'quvchida: tez fikrlash; e'tibor; muloqot; ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlanadi.

"So'zni davom ettir" didaktik o'yini. O'quvchilar maqol, ibora yoki hikoyaning boshlangan qismini davom ettiradi. Bu metod assotsiativ tafakkurni kuchaytiradi va o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Didaktik o'yinlar asosida o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari. O'tkazilgan tajribalar, kuzatuv va so'rovnomalar quyidagilarni ko'rsatdi:

- 80% o'quvchilar o'yinli darslarni ancha qiziqarli deb baholadi;
- 75% o'quvchilarda so'z boyligi, metaforik fikrlash va grammatik malakalar yaxshilandi;

- 70% o'quvchilar o'z fikrini mustaqil ifodalash qobiliyati oshganini bildirdi.

Didaktik o'yinlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar:

- dars mavzusiga mos o'yin tanlash;
- o'yin dars mazmuniga mos bo'lishi va belgilangan maqsadga xizmat qilishi zarur;
- o'yin davomida barcha o'quvchilar teng ishtirok etishi ta'minlanishi kerak; - - guruhdagi barcha ishtirokchilarni jarayonga jalb qilish uchun rollarni teng taqsimlash muhim;

- o'yin yakunida natijalar muhokama qilinib, xulosa chiqarilishi lozim;

- o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish har bir o'quvchi individual xususiyatlarga ega;

- didaktik o'yinlarni tanlash va o'tkazishda o'quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishlariga mos keladigan usullarni qo'llash zarur;

- vaqtni samarali taqsimlash: didaktik o'yinlar dars vaqtining muayyan qismini egallashi kerak;

- o'yin davomida asosiy maqsad – mavzuni o'zlashtirish ekanligini unutmaslik lozim.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'yin jarayonini yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Interaktiv doska, mobil ilovalar yoki onlayn platformalarda o'tkaziladigan o'yinlar orqali darslar qiziqarliroq bo'ladi. Masalan, turli fanlardan test topshiriqlarini qiziqarli bajarish uchun "Wordwall", "Learning Apps" yoki "Quizizz" kabi platformalar juda

samarali. Ushbu tavsiyalar orqali didaktik o'yinlarni samarali o'tkazish va ta'lim sifatini oshirish mumkin. O'qituvchilar mazkur usullardan foydalanib, o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradilar va ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishini ta'minlaydilar. Didaktik o'yinlarni ta'limda kengroq qo'llash va ularni turli fanlar bo'yicha moslashtirish zarur. Bu o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Davlatov A. Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi o'rni / A. Davlatov. Toshkent: O'qituvchi, 2018. — 180 b.
2. Ko'chkarov B. Ta'lim metodikasi va didaktik o'yinlar / B. Ko'chkarov. — Toshkent: Akademiya, 2017. — 175 b.
3. Mammadov I. Didaktik o'yinlar: o'quvchi faolligini oshirishning usuli sifatida / I. Mammadov. — Baku: Elm, 2014. — 190 b.
4. Yuldashev A. Ta'limda interaktiv metodlar: didaktik o'yinlar va ularning o'rni / A. Yuldashev. — Toshkent: Universitet, 2015. — 150 b.
5. Sharipov A. O'quv jarayonida didaktik o'yinlarning o'rni va pedagogik ahamiyati / A. Sharipov. — Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2016. — 200 b.